

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI


NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

T.N.QORI NIYOZIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON  
PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY TADQIQOT INSTITUTI



## **"UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA TABIIY FANLARNI O'QITISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR"**

respublika ilmiy-amaliy anjuman  
materiallari



Tasviriy san'at fani o'quvchilardan atrof muhitni his etish, undagi voqealari va hodisalarini o'ziga xos jihatlarini bilishi talab etadi. Shuning uchun tasviriy san'at darslarida o'quvchilar perspektivaning chiziqli va havo perspektivasi, yorug'soya, rangshunoslik, kompozitsiya qonunlarini yaxshi bilishlari ham kerak. Shuning bilan birga, odam, qush va hayvonlarning tuzilishi, plastik anatomiyasini haqida ham bilimlarga ega bo'lishlari lozim. Bu esa o'quvchilarga zehnlarining o'tkirlashishiga yordam beradi. O'quvchilarni tabiat qo'ynga (plener) ga ekskursiyalarga tabiat qo'yniga olib borilganda, tabiatni o'rganish, tasvirlarini chizish vaqtida tabiatni juda asrab avaylash va ehtiyyot qilish zarurligini, daraxtlarga zarar etkazish mumkin emasligini, shox-novdalarni sindirish, gullarni yulib tashlash, qushlar bilan hayvonlarni bezovta qilish yaxshi ish emasli tushunitrib borish lozim.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI***

1. R. Hasanov. *Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi*. Toshkent. Fan. 2004. 62 bet.
2. R. Hasanov. O'. Nurtoyyev. *Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi*. Toshkent. Nizomiy TDPU. 2008. 16 bet.
3. S. Abdurasulov. *Tasviriy san'at atamalari*. Toshkent. Nizomiy TDPU. 2002



## **BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA MANTIQIY O'YIN MASHQLARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDА MUSTAQIL BILIM OLISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

**MO'MINOVA M.R.,**

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya  
yo'nalishi talabasi. Elektron pochta: mominova.mahfuza.10@gmail.com*

**RAXMATULLAYEVA A.Q.,**

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya  
kafedrasи p.f.f.d . Elektron pochta: a.raxmatillayeva@cspi.uz*

Maktab va oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini o'yinlar ishtirokida tashkil etish o'quvchilarnining darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, dars jarayoniga hamma o'quvchilarning jalb qilishini ta'minlaydi.

O'yinlar davomida o'quvchilarda hosil bo'ladigan ijobjiy his-hayajon tuyg'usi ularni charchashdan asraydi, ularning kommunikativ va intellekttual qobiliyatini oshiradi. O'yinlar asosida tashkil etiladigan darslar o'quvchining bilim olish faoliyatini o'yin faoliyati bilan qo'shib olib borishdan iborat [1].

Mustaqil bilim olish ko‘nikmasi o‘quvchilarning o‘quv bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish nazarda tutilgan bo‘lib bunda o‘quvchilar o‘yinlar davomida bolalar yangi tajriba,ijtimoiy tajriba ortiradi [2].

**“You Tobe“ metodi** - Ushbu metoddan foydalanganda dars jarayoniga barcha o‘quvchilarning jalb qilishini ta’minlaydi.Chunki dars jarayoniga e’tiborsiz bo‘lgan o‘quvchi ham “you tobe” so‘zini eshitishi bilan bir marotaba doskaga ko‘z tashlaydi va qanday jarayon ekanligiga qiziqa boshlaydi bu esa bevosita dars jarayoniga o‘quvchini jalb qiladi. Bu metod yordamida yangi mavzu yoki o‘tilgan mavzuni o‘quvchilar qanday darajada tushunganligini,ularning mavzuga kerativ yondashganligini bilib olish mumkin. Bunda:

- 1)O‘quvchilar soniga qarab guruhlarga bo‘linadi;
- 2)O‘quvchilarga A4 formatdagi qog‘ozlar tarqatiladi;
- 3)O‘quvchilarga o‘tilgan mavzu yoki yangi mavzuni qanday tushunganligi bo‘yicha qog‘ozlarga turli xil rasmlar yoki so‘zlar yordamida tasvirlash buyuriladi.Bunda o‘quvchilar mavzuga kerativ yondashgan holda bajaradilar;
- 4) Doskaga like va dislike ishorali chiziladi;
- 5) Shart so‘ngida guruhlardan qo‘g‘ozlar yig‘ib olinadi va qog‘ozga tushurilgan tasvirlar,so‘zlar o‘quvchilarga ko‘rsatiladi.
- 6) O‘quvchilar qog‘ozdagi tasvirlarga qarab like va dislike ishoralarini qo‘llari yordamida ko‘rsatadi. Like va dislike soni sanaladi. Likelar soni ko‘p bo‘lgan guruh shart so‘ngida aniqlanadi va rag‘batlantiriladi.

**Xulosa.** Dars jarayonini turli xil o‘yinlar yordamida olib borish dars jarayonlarining bir xil o‘tishidan yiroqlashtiradi. Dars jarayonlariga o‘quvchilar kerativ holda yondashib,ularning fikrlash qobiliyatlarini oshirib boradi. Mazkur o‘yin darsda o‘quvchilarning barchasi hamkorlikda ishlaydi,avval o‘zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llab yangi bilimlarini egallaydi.Bu esa o‘quvchilarning o‘z bilimlariga,iqtidoriga ishonch uyg‘otadi va har bir o‘quvchi jiddiy tayyorgarlik,izlanish muvaffaqiyati garovi ekanligini anglagan holda bilim olishga kirishadi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. K.Kubakova Biologiya o‘qitish metodikasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar olib borish texnologiyasi Toshkent-2018
- 2.J.O.Tolipova Biologiya o‘qitishda pedagogika texnologiyalari Toshkent-2011
- 3.J.O.Tolipova A.T.G‘ofurov Biologiya o‘qitish metodikasi Toshkent 2004
4. Рахматуллаева Анор Кайруллаевна. Современные педагогические технологии, используемые для выявления одаренных учащихся при



## **“O‘ZBEKISTON TABIIY GEOGRAFIYASI” FANIGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR**

**BORATOVA M.G`.,**

*p.f.f.d. (PhD)*

**O‘RINOV B.S.**

*Navoiy davlat pedagogika instituti,*

Yangi O‘zbekistonni qurish jarayonidagi keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish vaqtida bu boradagi ishlarni amalga oshirishda davlatimiz ta’lim sohasi oldiga Vatan ravnaqi, yurt tinchligi yo‘lida xizmat qiladigan yosh avlodni komil inson darajasida tarbiyalash kabi muhim ustivor vazifalarni yuklaydi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim muassasalari oldiga muayyan davlat buyurtmalarini qo‘yadi, ya’ni, farzandlarimizni hozirgi rivojlangan zamon talabiga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar va globallashuv jarayonida o‘zining to‘g‘ri yo‘lini, mustahkam pozitsiyasini egallay oladigan har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalab voyaga etkazishni talab etadi.

Jamiyatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi tamoyillarni hisobga olgan holda ta’lim tizimi oldiga ijtimoiy buyurtmalar qo‘yilgan. Mazkur davlat va ijtimoiy buyurtmalar mazmuniga muvofiq oliy ta’lim muassasalarida fanlarni o‘qitish, xususan ilmiy-nazariy fanlarni o‘qitishga qo‘yilgan maqsad va vazifalari belgilab olinadi. Bu vazifalar quyidagilardir:

Geografik ta’lim jarayonida talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash ma’rifiy ishlarning samarali shakl va usullarini ishlab va joriy etish;

- Geografiya ta’limida, xususan, “O‘zbekiston geografiyasi” o‘qitishda ta’lim-tarbiya jarayoniga zamонавиy innovatsion, axborot texnologiyalini qo‘llash va bu borada xorijiy tajribalardan foydalanish;
- Xalqning boy ma’naviy va intelektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida geografik ta’limni insonparvarlashtirish;
- Geografiya ta’limini mazmunini yoritish, maqsadini amalga oshirishda rol o‘ynaydigan didaktik ta’minoni yaratish. Buning uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar bilan bir qatorda geografiya fanlari

<b>M.T.XONNAZAROVA, S.T.XONNAZAROVA,</b>	<i>Oliy ta’lim muassasalarida zoologiya fanini o‘qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirishning (suyakli baliqlar sinfi misolida) usullari</i>	<b>94</b>
<b>M.T.UMARALIYEVA, I.Y.ABDURAHMONOVA</b>	<i>Ta’lim natijalarini mezon asosida baholash</i>	<b>97</b>
<b>M.I.XUDAYBERDIYEV</b>	<i>Tasviriy san’at darslarida tabiiy fanlararo integratsiyalarining ahamiyati</i>	<b>100</b>
<b>M.R.MO‘MINOVA, A.Q.RAXMATULLAYEVA</b>	<i>Biologiya fanini o‘qitishda mantiqiy o‘yin mashqlaridan foydalanib o‘quvchilarda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish</i>	<b>103</b>
<b>M.G‘.BORATOVA B.S.O‘RINOV</b>	<i>O‘zbekiston tabiiy geografiyasi fani taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari va ta’lim jarayoniga qo‘yiladigan zamонавиј talablar.</i>	<b>105</b>
<b>M.G‘.BORATOVA O.H.ISHBO‘YEVA</b>	<i>Talabalarning kasbiy kompetetnligini rivojlantirishing ahamiyati</i>	<b>107</b>
<b>N.SH.MANNOPOVA</b>	<i>Bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida salomatlikni saqlash kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari</i>	<b>110</b>
<b>N.T.MISIROVA, N.ABDUKAYUMOVA, U.BAXTIYOROVA</b>	<i>Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish ijtimoiy zarurat sifatida</i>	<b>112</b>
<b>N.SHARIPOVA</b>	<i>Umumiy o‘rta talim maktablarida o‘quvchilarining biologiyadan masala va mashqlarni evristik usulda echish metodikasini rivojlantirish. (ekologik piramida masalalari misolida)</i>	<b>114</b>
<b>N.R.MASHARIPOVA</b>	<i>Amir temur va zahiriddin muhammad boburning tabiatga nisbatan oqilona munosabati vositasida o‘quvchilarda atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan tanqidiy fikrlashni shakllantirish imkoniyatlari</i>	<b>117</b>
<b>N.X.NIZAMIDDINOVA</b>	<i>biologiya darslarida zamонавиј metodlarning ahamiyati</i>	<b>119</b>
<b>O.N.MUXIDOVA</b>	<i>Talabalarni o‘qitish jarayonida transversal kompetensiyalarning zaruriyati</i>	<b>122</b>
<b>R.M.TADJIBAYEVA</b>	<i>Raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari</i>	<b>124</b>